

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUXIDDINOVA MAVZUNA SIROJIDDIN QIZI

**XVIII-XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI
TARIXIY JARAYONLAR (TARIXI XUMULIY ASARI ASOSIDA)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on historical sciences**

Muxiddinova Mavzuna Sirojiddin qizi

XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligidagi tarixiy jarayonlar
(Tarixi Xumuli asari asosida) 3

Муҳиддинова Мавзуна Сирожиддин кизи

Исторические процессы в Бухарском эмирате в XVIII- первой половине
XIX вв (на основе произведения Тарихи Хумули) 25

Mukhiddinova Mavzuna Sirojiddin kizi

Historical processes in the Bukhara Emirate in the 18th - first half of the 19th
centuries (based on the work of Tarikhi Khumuli) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUXIDDINOVA MAVZUNA SIROJIDDIN QIZI

**XVIII-XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI
TARIXIY JARAYONLAR (TARIXI XUMULIY ASARI ASOSIDA)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Tar1801 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasrullayev Maxmud Ibodullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Normurodova Guzal Bekturodovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Xaitov Shodmon Axmatovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d, professor

F.A.Narmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
falsafa doktori (PhD)

G.B.Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tarix fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixshunosligida davlatlar va ularning rivojlanish bosqichlarini o'rganish asosiy mazmun kasb etadi. Bu borada muayyan mamlakat tarixi masalasi har bir davrning taraqqiyoti va turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishda manbalarning o'рни muhim ahamiyatga ega. Har bir xalqning taraqqiyoti uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlariga bevosita bog'liqdir. Tarixiy manbalar tahlili asosida xalqlar tarixini va milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda umuminsoniy sivilizatsiyani asrash masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda xalqaro miqyosda tarixiy manbalar va qo'lyozmalarni o'rganish va ilmiy muomalaga kiritishga qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalar jahonning turli ilmiy markazlarida keng o'rganilmoqda¹. Xususan, Buxoroning mang'itlar sulolasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir masalalar maxsus loyihalar sifatida xorijning bir qator yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari - YuNESKOning Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti (MOTXI), Kembrij universiteti Markaziy Osiyo institutlarida (Buyuk Britaniya), Rossiya FA va boshqa universitetlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, "Tarixi Xumuliy" asarini tadqiq etish mavzusi xalqaro miqyosda dolzarbligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug' alloma va mutafakkirlarimizning ko'plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston zaminida yashab o'tgan allomalarning hayoti va ijodini kengroq tadqiq etishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyo xonliklari davrida kechgan murakkab siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diplomatik munosabatlar tarixi birlamchi manbalar asosida keng miqyosda o'rganilib kelinmoqda. Shu o'rinda, Buxoro amirligining siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi mahalliy muarrixlarning asarlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shular jumlasiga Jumaquli Xumuliyning "Tarixi Xumuliy" asari kirib, asarda Buxoro amirlarining markazlashtirish siyosati, ma'naviy-ma'rifiy sohaga hissa qo'shgan tarixiy shaxslar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlarni tarix fani sohasida ilmiy muomalaga kiritilishi tanlangan tadqiqot mavzusining fan sohasidagi zaruratni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2295-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi 315-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori

¹ https://www.islamwissenschaft.unibe.ch/personen/prof_em_dr_von_kuegelgen_anke/index_eng.html;
<http://tsulbp.tj/glavnaya>; <https://unesco-icas.org/ru>; <https://anrt.tj/ru/instituty-issledovaniya/otdelenie-obshchestvennykh-nauk/institut-istorii-arkheologii-i-etnografii-im-a-donisha>.

hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ayrim bandlarini bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Buxoro amirligi tarixini yoritishda turli manbashunoslik va tarixshunoslik ishlari mavjud bo'lib, biroq aynan ma'lum bir tarixiy asar, xususan "Tarixi Xumuliy" asari misolida Buxoro amirligi tarixining yoritilishi masalasi sanoqli hisoblanadi. Shunga qaramasdan, muammoga oid ilmiy izlanishlarning yaratilgan davri, yondashuvi va hududiga ko'ra, uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bularga 1) sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 2) mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan izlanishlar; 3) zamonaviy xorijiy ilmiy ishlarni kiritish mumkin.

Birinchi guruhga sovet davrida olib borilgan izlanishlar jumlasiga Sadridin Ayniy, A.Abdurahmonov, R.Xodizoda, U.Karimov, S.Sa'diyev, I.Abdullayev, H.Hikmatullayev va boshqalarning ishlarini kiritish mumkin². "Tarixi Xumuliy" asari birinchilardan bo'lib, Sadridin Ayniyning "Tarix-i amiron-i mang'itiya-i Buxoro" asarida "Tarixi Mullo Xumuliy" sifatida qayd etilgan. Tadqiqotchi A.Abdurahmonov 1972-yilda adabiyotshunoslik yo'nalishida "Xumuliy Urgutiy va uning ijodiy merosi" mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada olim "Tarixi Xumuliy" asarini bir-biridan mustaqil uch asar: "Tarixi Xumuliy", "Tarixi mang'itiya" hamda "Shayx Musoxon Dahbediyning tarjimai holi" sifatida qayd qilgan.

Ikkinchi guruh tadqiqotlariga mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida yaratilgan ilmiy ishlar kiradi. Xususan, X.Yo'ldoshxo'jayev, G'.Karimiy, I.Qayumova, M.Babadjanov³, P.Qayumov⁴, K.Kattayev⁵ va boshqalarning asarlari ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi. X.Yo'ldoshxo'jayev o'zining "Musoxon Dahbediyning naqshbandiya-mujaddidiya tariqati rivojida tutgan o'rni (XVIII asr)" mavzusidagi tadqiqot ishida Xumuliyning mazkur asaridan keng foydalangan va "Tarixi Xumuliy" hamda uning tarkibiga kiritilgan Musoxon Dahbediy faoliyatiga oid ma'lumotlarni yoritgan⁶.

² Айний Садриддин. Тарих-и амирон-и манғития-и Бухоро. – Тошкент, 1923. – Б. 15.; Ходизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тожик. Асрҳои XVI-XIX ва ибтидои асри XX. - Душанбе: 1988. – 224 с.; Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Х. Самарқандлик олимлар. - Т.: 1969. Асрлар нидоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. - Т.: 1982. – 327 б. Абдурахмонов А. Хумулий Ургутий ва унинг ижодий мероси. – Самарқанд, 1972. – 169 б.

³ Бабаджанов Б.М. Политическая деятельность шейхов Накшбандия в Мавераннахре (I пол. XVI в.) Автореферат ... канд.ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУз., 1996. – 56 с.

⁴ Қайюмов П. Тазкирайи Қайюмий. Уч жилд. Жилд 3. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Адабиёт давлат музейи, 2003. – Б.857-858.

⁵ Каттаев К. Махдуми Аъзам тарихи ва мукаммал Дахбедийлар тариқати. – Тошкент, "Маърифат бўстони", 2017. – 65 б.; Шу муаллиф. Зубдатус-соликин (тарж. ва тадқ. К.Каттаев, Б.Валихўжаев). – Самарқанд, "Сўғдиён", 1994; Шу муаллиф. Танбиятус-салотин. (тарж. ва тадқ. К.Каттаев, Б.Валихўжаев. – Самарқанд, "Сўғдиён", 1994; Шу муаллиф. Махдуми Аъзамийлар тариқати. – Самарқанд: СамДУ, 2011; Рисолаи Бобурия (тарж. тадқ. К.Каттаев). – Самарқанд, СамДУ, 2011; Махдуми Аъзам тарихи ва мукаммал Дахбедийлар тариқати. – Тошкент, "Маърифат бўстони", 2017; Шу муаллиф. Домулло Камолнинг Аълия тариқатида ўрни ва юртимизнинг охириги машхур муршидлари. – Тошкент, "Qamar-media", 2020; Махдуми Аъзам Дахбедий. "Мажмуа ар-расоил" (тузувчи, сўзбоши ва тадқиқот муаллифи К.Каттаев). – Тошкент, "Qamar-media", 2020.

⁶ Юлдашходжаев Х.Х. Мусохон Дахбедийнинг нақшбандия-муҷадди́дия тариқати ривожиди тутган ўрни (XVIII аср). – Тошкент: ЎзФА ШИ, 2008. – Б.140.; Шу муаллиф. "Тарих-и Хумулий" асари Ўзбекистон

2013-yilda YuNESKO tashkiloti homiyligida, Gʻulom Karimiy va Iroda Qayumova hammuallifligida “Tarixi Xumuliy” asarining turli qoʻlyozma nusxalari asosida ilmiy-tanqidiy matni tayyorlanib, fors tilidagi matni toshbosma asosida oʻzbek va ingliz tillaridagi soʻzboshi bilan nashr etilgan⁷. Lekin, ushbu nashrda asar matnining tarjimasini berilmagan. Shu bois, mazkur dissertatsiyada asar matni ushbu nashrdan foydalangan holda tarjima qilindi.

Uchinchi guruhni MDH va xorijda olib borilgan zamonaviy izlanishlar tashkil etib, mazkur ilmiy ishlarda Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol xususida maʼlumotlar beriladi. Xususan, shvetsariyalik olim Anke fon Kyugelgen “Легитимация среднеазиатской династии мангытов в произведениях их историков” nomli asarida “Tarixi Xumuliy” asaridagi maʼlumotlardan foydalangan⁸. Ishda Buxoro amirligida mangʻitlar tomonidan hukmronlik huquqini mustahkamlash masalalari boʻyicha fikr yuritilgan. Shu jihatdan asar tarixchilarga zamon va makon tushunchalari haqida maʼlumotlar, mangʻit hukmdorlarining tarixiy portretlarini qiziqarli tasvirlangani bilan ham qimmatlidir.

Tojikistonlik olim K.Sobirovning bir nechta maqolasida Xumuliy va uning asarlari haqida maʼlumot berilgan va ularda A.Abdurahmonovning baʼzi fikr va mulohazalari inkor etilgan⁹. Bundan tashqari, Tojikiston Milliy ilmlar Akademiyasining Ahmad Donish nomidagi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti xodimi Ahmad Hojizoda “Taʼrixi Xumuliy” va uning manbashunoslikdagi ahamiyati” nomi bilan maqola chop etgan¹⁰.

Xullas, tadqiqotning tarixshunoslik tahlili shuni koʻrsatadiki, “Tarixi Xumuliy” boʻyicha bir qator izlanishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, ularning baʼzilarida qoʻyilgan masala adabiyotshunoslik yoki tasavvuf nuqtai nazaridan koʻrib chiqilgan boʻlsa, boshqalarida Buxoro amirligi tarixining alohida tanlangan sohalari bilan bogʻliq holda yoritiladi. Demak, “Tarixi Xumuliy” asarida Buxoro amirligi tarixining yoritilishi masalasi butunligicha va alohida tadqiqot sifatida oʻrganilmagan, bu esa tanlangan muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Samarqand Davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 “Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi: munosabatlar va qarashlar (2016-2020)” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar

тарихи бўйича ноёб манба // Истиклол йиллари: миллий-диний кадрларнинг халққа қайтиши. Маърузалар тезислари тўплами. – Тошкент, 2001. – Б.164-166.

⁷ Mullā Jumʼa-qulī Khumūlī. Tārīkhī Khumūlī. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhodjayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. – 243 p.

⁸ Фон Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангытов в произведениях их историков. – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 519 с.

⁹ Собиров К. Асари нави Хумули. // “Ахбороти Академияи фанҳои РСС Тоҷикистон”, Душанбе, 1975, №1 (79) – С.25-27. Шу муаллиф. Хумули и его наследие. // Материалы по археологии и истории Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1977; Шу муаллиф. Сведения Хумули об архитектурных сооружениях первой половины XIX в. // Материалы по истории и культуре Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1981. С.138-142; Хумули Джумакул. Рисола дар баёни кирони кавокиб. // В “Сборнике Хумули”. – Душанбе, 1982. – С. 23-28.

¹⁰ Хожизода А. “Таърихи Хумули” ва аҳамияти сарчашмашиносии он // “Муаррих”, 2020, № 3. – С. 87-96.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Buxoro amirligi tarixini “Tarixi Xumuliy” asari asosida yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro amirligi tarixiga doir manbalarni tasniflash;

Jumaquli Xumuliyning hayoti va faoliyati: “Tarixi Xumuliy” asarining tarixiy va ilmiy talqinini ko‘rsatish;

Buxoroda mang‘itlar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi tarixini asoslash;

Buxoro amirlarining faoliyati xususidagi ma‘lumotlarning tarixiy tahlilini ko‘rsatib berish;

“Tarixi Xumuliy” asarida Buxoro tarixiga oid maxsus atamalar etimologiyasini aniqlash;

An‘anaviy ta‘lim maskanlari va ularning ijtimoiy-ma‘naviy hayotdagi o‘rnini ko‘rsatish;

Muxoxon Dahbediy va dahbediy ulamolarning Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta‘sirini aniqlash;

“Tarixi Xumuliy”da davr ulamolari va ularning hayoti hamda faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti Jumaquli Urgutiyning “Tarixi Xumuliy” asari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. “Tarixi Xumuliy” asaridagi O‘zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallagan Buxoro amirligining siyosiy va madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga doir ma‘lumotlar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, qiyosiy-tipologik kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro amirligidagi mang‘itlarning hokimiyatga kelishida tarixiy muhit (jung‘orlar hujumi, Nodirshoh bosqini, ichki urug‘chilik), legitimlik mezonlari (“Taxti baxt”, “taxti saltanati Buxoro”, “taxti Turon”, “muqaddas burch”) muhim o‘rin tutganligi hamda Muhammad Rahimbiyning markazlashtirish (“Amiri Komgor”, “Saltanat nizomi zinalari”) siyosati olib borganligi asoslab berilgan;

Amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan (soliq, sud, boshqaruv va harbiy) islohotlar, Samarqand shahrining qayta tiklanishidagi (Payqoboq, Qalandarxona, Xo‘ja Ahror, So‘zangaron) xizmatlari, boshqa amirlardan farqli (“noib”, diniy maqom, “amir ul-mo‘minin”) jihatlari va shaxsiy xislatlari (Xoqonlar hujjati va burhoni, tariqatning chirog‘i, avliyolar faxri, mannonning rahmati, millat ishlarini isloh qiluvchisi, bid‘at va zalolatni yo‘q qiluvchisi, hidoyat va shariatning homiysi) ochib berilgan;

Buxoro amirligi an‘anaviy ta‘lim dargohlarida, jumladan madrasalarda o‘qitilgan diniy va dunyoviy bilimlar (ilmi masohat, ilmi faroiz, shar‘iya, arabiya, hikmat)ning ahamiyati, mudarrislarning moddiy ta‘minoti (“muaxxaz” – daromad manbai), Samarqanddagi Tillakori madrasasi mudarrisi bir vaqtning o‘zida

Samarqand shahri fatvo hay'atini ham boshqarganligi mudarris Lutfullohxoja ("sulton ul-muhaqqiqin", "imomlarning ustuni") misolida sharhlangan, u keyinchalik Shahrisabzdagi Xolboy Oxund va Buxorodagi Ruhobod, Gulobod madrasalarida faoliyat yuritganligi dalillangan;

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida Dahbediy ulamolarning tutgan o'rni, davlat boshqaruvidagi roli ("Qayyumi zamon», (zamon ustuni), "qayyumiyat" martabasi, ma'naviy murshid, "O'rini shohnishin") va mavqei ("qutbul-mutaaxirini" (oxirgi qutblar qutbi), "a'liyai mujaddadiya", oltin zanjir), shuningdek, Samarqand, Buxoro muhitida Dahbediy silsilasi vakillarining nufuzi ("qutbul-aqtob", "qutbul-olam", "naqshbandiya-Dahbediya") ko'rsatib berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

"Tarixi Xumuliy" asarining mang'itlar davri tarixini yoritishda muhim tarixiy manba sifatidagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan va ilk bor hozirgi o'zbek tilida ilmiy muomalaga kiritildi;

Jumaquli Xumuliyning tarixnavislik, xususan, mang'itlar davri tarixnavislik maktabini rivojlantirishdagi xizmatlari manbalar asosida dalillangan;

Mang'it hukmdorlarining hayoti va faoliyati hamda ularning jamiyat va amirlik hayotidagi mavqeyi, turli jabhalarda olib borgan islohotlariga oid yangi qimmatli ma'lumotlar aniqlangan;

Mang'itlar hukmronligi davrida kechgan tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan;

"Tarixi Xumuliy" asarida Buxoro amirligining ma'rifiy taraqqiyotida Dahbed ulomolarining bevosita ishtiroki, xususan, Musoxon Dahbediyning amirlik siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Jumaquli Xumuliyning Buxoro ilmiy va madaniy muhitida tutgan o'rni, uning faoliyati, "Tarixi Xumuliy" asarining Buxoro amirligi tarixini yoritishdagi ahamiyati va zaruratini yoritishda "Tuhfai xoniy", "Gulshan ul-muluk" kabi tarixiy manbalarga suyanganligi, jumladan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxasining (inv.№ 37/VI) asarning boshqa qo'lyozma nusxalari bilan solishtirilganligi va amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Jumaquli Xumuliyning Buxoro amirligi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni, uning tarixnavislik ilmiga qo'shgan hissasi, "Tarixi Xumuliy" asarining mamlakatimiz tarixini, ayniqsa, Buxoro amirligining tashkil topishi, rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni yoritishda tutgan o'rni, mang'itlar sulolasi vakillarining hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarning aks ettirilishi, bu davrda Buxoro va Samarqandda amalga oshirilgan islohotlar xususidagi yangi faktik ma'lumotlarning keltirilishi hamda Buxoro amirligida Dahbediy ulamolarning jamiyat va mamlakat hayotiga ta'siri haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirishga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro tarixining, bevosita mang'itlar hukmronligi davriga bag'ishlangan tadqiqotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga, shuningdek, tarixiy bilimlarni rivojlantirishga, yaratiladigan darslik, monografiya, grant loyihasi va o'quv qo'llanmalarni mukammallashtirish, yangi tarixiy faktlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligidagi tarixiy jarayonlar (Tarixi Xumuliy asari asosida)" mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy izlanishlar natijalari asosida:

Buxoro amirligidagi mang'itlarning hokimiyatga kelishida tarixiy muhit (jung'orlar hujumi, Nodirshoh bosqini, ichki urug'chilik), legitimlik me'zonlari ("Taxti baxt", "taxti saltanati Buxoro", "taxti Turon", "muqaddas burch") muhim o'rin tutganligi hamda Muhammad Rahimbiyning markazlashtirish ("Amiri Komgor", "Saltanat nizomi zinalari") siyosati olib borganligi bilan bog'liq ma'lumotlar Samarqand davlat universiteti tarix yo'nalishi talabalari uchun chiqarilgan "O'zbekiston tarixi: Samarqand tarixi" o'quv qo'llanmasining (Samarqand, SamDU, 2023. – 322-bet) 1-2 mavzularida aks ettirilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024 yil 20 aprelda berilgan 10-1817 sonli ma'lumotnoma). Mazkur ilmiy natijalar Buxoro amirligining siyosiy va ma'muriy-boshqaruv sohasida yuz bergan o'zgarishlarni ochib berishga xizmat qilgan.

Amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan (soliq, sud, boshqaruv va harbiy) islohotlar, Samarqand shahrining qayta tiklanishidagi (Payqoboq, Qalandarxona, Xo'ja Ahror, So'zangaron) xizmatlari, boshqa amirlardan farqli ("noib", diniy maqom, "amir ul-mo'minin") jihatlari va shaxsiy xislatlari (Xoqonlar hujjati va burhoni, tariqatning chirog'i, avliyolar faxri, mannonning rahmati, millat ishlarini isloh qiluvchisi, bid'at va zalolatni yo'q qiluvchisi, hidoyat va shariatning homiysi) to'g'risidagi ma'lumotlar Samarqand davlat universiteti tarix yo'nalishi talabalari uchun nashr qilingan "O'zbekiston tarixi: Samarqand tarixi" o'quv qo'llanmasining (Samarqand, SamDU, 2023. – 322-bet) 1-2 mavzularida aks ettirilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024 yil 20 aprelda berilgan 10-1817 sonli ma'lumotnoma). Tadqiqotning ilmiy xulosalari Buxoro amirligidagi o'tkazilgan islohotlarni ochib berishga xizmat qilgan;

Buxoro amirligi an'anaviy ta'lim dargohlarida, jumladan madrasalarda o'qitilgan diniy va dunyoviy bilimlar (ilmi masohat, ilmi faroiz, shar'iya, Arabiya, hikmat), mudarrislarning moddiy ta'minoti ("muaxxaz" – daromad manbai), Lutfullohxojaning ("sulton ul-muhaqqiqin", "imomlarning ustuni") Samarqanddagi Tillakori madrasasida mudarrislik qilish bilan bir qatorda Samarqand shahri fatvo hay'atini ham boshqarganligi hamda keyinchalik Shahrisabzdagi Xolboy Oxund va Buxorodagi Ruhobod, Gulobod madrasalarida faoliyat yuritganligiga doir tadqiqot materiallaridan Samarqand davlat universitetida 2019-2021-yillarga mo'ljallangan F3-202001047 - "O'zbekistonda madrasa ta'limi tarixi" elektron portalini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada shakllantirishda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023 yil 26 oktyabrdagi 10-5554-

sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqotning ilmiy xulosalari Buxoro amirligining ijtimoiy-madaniy hayotida madrasa ta'limi holatini ochib berishga xizmat qilgan;

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida Dahbediy ulamolarning tutgan o'rni, davlat boshqaruvidagi roli ("qayyumi zamon", (zamon ustuni), "qayyumiyat" martabasi, ma'naviy murshid, "o'rini shohnishin") va mavqei ("qutbul-mutaaxirini" (oxirgi qutblar qutbi), "a'liyai mujaddadiya", oltin zanjir), shuningdek, Samarqand, Buxoro muhitida Dahbediy silsilasi vakillarining nufuzi haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" davlat unitar korxonasida "Moziyga sayohat", "Tadqiqot" ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (2023-yil 9-iyundagi 02-02-03/132-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalar Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni ochib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman va konferensiyalar, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (ulardan 6 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallari) maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligiga asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Mavzuga doir manbalar va ularning tarixiy-ilmiy tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida Buxoro amirligi tarixiga doir manbalar tasnifi, Jumaquli Xumuliyning hayoti, faoliyatiga doir ma'lumotlar hamda "Tarixi Xumuliy" asarining yozilishi, o'rganilishi masalalari tahlil etilgan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida mahalliy tarixnavislar qalamiga mansub fors-tojik tilidagi asarlarning mavzusi va uslubi asosan mang'itlar sulolasi vakillari faoliyati hamda siyosiy masalalarga bag'ishlangan. O'rganilayotgan davr haqida ma'lumot beruvchi manbalarga Qozi Vafo Karminagiyning "Tuhfai xoniy" ("Tuhfat al-xoniy") nomli asarini kiritish mumkin¹¹. Mazkur asar va muallif

¹¹ Мухаммадвафои Карминаги. Тўхфатул-хони / Мукаддима, тахияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Ҷамшед Ҷўразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хучанд, "Нури маърифат", 2018.// Мамаджанов А. Мухаммад Вафо Карманагийннинг "Тухфат ул-хоний" асарида сиёсий муносабатларнинг ёритилиши. УЗА электрон журнали. №10 (48) 2023. – С188.

faoliyatining ayrim jihatlarini o'rgangan A.A.Semyonov¹², N.D.Mikluxo-Maklay¹³, A.M.Mirzoyev va A.N.Boldirev¹⁴ singari olimlar ushbu asarga yuqori baho bergan.

Muhammadsharif ibn Muhammadnaqiyning "Tojut-tavorix" ("Tarixlar toji") nomli asari Buxoro amirligi tarixini yorituvchi muhim manbalardan biridir. Muallifning nomi va ilmiy-adabiy merosi davr tazkiralarda o'z aksini topgan¹⁵. Mazkur asarda "Tuhfai xoniy"dan farqli o'laroq, muallif foydalangan bir nechta manbalar tilga olinadi, ushbu manbalarning ayrimlari qiyosiy solishtirish asosida aniqlangan. Muallif "Tojut-tavorix" asarini yozishda "Jome' ut-tavorix", "Zubdat ul-vuzaro", "Ravzatus-safo", "Ta'rix Rashidiy", "Ta'rix Nodiriy" va "Tuhfai xoniy"dan foydalanganini ta'kidlaydi.

Mirzo Sodiq Munshiyning "Dahmai shohon", "Qazo va qadar", "Raf'i tumani ohugir", "Oshiq shudani darvesh ba duxtar", "Tavorixi manzum" kabi asarlari Buxoro amirligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁶. Anke fon Kyugelgen Mirzo Sodiq Munshiy tarixiy jarayonlar yozishdagi mahoratini tan olib, uni "xronogrammist" deb ataydi¹⁷.

Bu davrga oid keyingi tarixiy asar Miriy – Mir Husayn ibn Shohmurodning "Maxozin ut-taqvo" ("Taqvo xazinasi") asaridir. U 1200 hijriy yilda (m.1785/86) Buxoro amiri Shohmurod oilasida tug'ilgan¹⁸. Miriy qalamiga mansub "Maxozin ut-taqvo" asari diniy-tasavvufiy mazmundagi asar ekanligini qayd etgan holda, unda ba'zi tarixiy voqealarning ham aks etilganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotchi D.G.Voronovskiyning xulosasiga ko'ra, "Maxozin ut-taqvo" teologik asar¹⁹. Akademik V.V.Bartold esa, uni avtobiografik asar sifatida qayd etib, "shubhasiz uni Turkistonning XVIII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning boshlari uchun juda muhim manba deb hisoblash lozim"²⁰, – deb ta'kidlagan. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Maxozin ut-taqvo" teologik asar bo'lishi bilan birga, unda tarixiy voqealar va zamonasining tasavvuf shayxlari haqida avtobiografik ma'lumotlar ham keltirilgan. Shuning uchun uning "Buxoro tarixiga oid taqvo xazinasi" deya nomlanishi asar mazmuniga mos keladi.

Muhammad Ya'qub Amir Doniyolbiy otaliqning o'n ikkinchi farzandi bo'lib, "Gulshanul-mulk" asarining muallifidir. Muallif va uning asarini V.Voronovskiy monografik jihatdan tadqiq etgan (1952-yil). Biroq olimning avtoreferatidan tashqari dissertatsiya va asar tarjimasi yo'qolgan²¹. Muallifning "Risola" deb

¹² Собрание восточных рукописей. Т. I. Ташкент, 1952 – С.77.

¹³ Миклухо-Маклай Н.Д. Описание таджикских и персидских рукописей Института востоковедения. Выпуск 3. Исторические сочинения. Ответственные редакторы О.Ф. Акимовский. М.: «Наука» ГРВЛ, 1975. – С.308.

¹⁴ Собрание восточных рукописей. Том X. Ташкент, 1975. – С.125-126.

¹⁵ Ходизаде Р. Источники по изучению таджикской литературы второй половины XIX века. – Сталинабад, 1956. – С.117.

¹⁶ Каримов У. Мирзо Содик Мунши (Аҳвол ва осор). – Душанбе, 1972. – 220 с.

¹⁷ Кюгельген Анке. Легитимация... – С. 129.

¹⁸ Мир Муҳаммад Хусайн туғилган йилини "Соли тарих жў зи ду манқит" сўзлар оркали беради. – 1200/1785. Қаранг: Махзан ут-тақво, вар. 326.

¹⁹ Собрание восточных рукописей. Том VIII. - Ташкент, 1967. – С. 251. №5835.

²⁰ Бартольд В.В. Занятия в Туркестанских библиотеках и музеях летом 1925 г. // Известия Академии наук СССР. VI серия, 20:3-4 (1926), 217–236. – С.459.

²¹ Собрание Восточных рукописей, I.T:– С.83.

nomlagan asarida Muhammad Ya'qub mang'itlar sulolasi nasabnomasini to'lig'icha batartib aks ettirishga harakat qilgan²².

Mang'itlar davri tarixi Xorazm va Qo'qon tarixnavislik maktabi vakillari tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, Qo'qon tarixchilaridan Muhammad Hakimxon va Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy asarlarida mang'itlar hukmronligi davri batafsil yoritilgan²³.

Avazmuhammad Attorning "Tarixi jahonnamoyi" asaridagi "Mang'it sulolasining Buxoroda hukmronligi davri" bobi Buxoro tarixchilari asarlariga tayangan holda yozilgan. Undagi mang'itlar sulolasining davlat tepasiga kelishi, birinchi mang'it hukmdorlari, shuningdek, Amir Haydardan boshlab Amir Muzaffargacha bo'lgan voqealar, ayniqsa, Qo'qon xonligi bilan aloqador tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlar qiziqarli tarzda bayon etiladi. Ushbu asar "Tarixi Xumuliy"dan farqli ravishda Amir Haydar davriga qadar bo'lgan tarixiy voqealarning muxtasar bayoni bilan cheklanganligini qayd etmoq joiz.

"Tarixi Xumuliy" asarida mang'itlar sulolasining tarix sahnasiga kelishi hamda hukmdorlar faoliyati va amirlik hayotining sharhiga katta o'rin ajratilgan. Shuningdek, asarda mang'itlarning diplomatik aloqalariga oid ma'lumotlar muxtasar shaklda bayon etilgan. "Tarixi Xumuliy" boshqa shu toifadagi asarlardan o'zida Amir Shohmurod shaxsiyati, hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ma'lumotlar va Samarqand shahri haqidagi nodir ma'lumotlar, mang'itlar hukmronligi davrida amirlikda olib borilgan islohotlar, bunyodkorlik ishlariga oid qimmatli faktlarning batafsil yoritilgani bilan farqlanadi. Shuningdek, mang'it hukmdorlari va amirlik hayotida tasavvuf shayxlarining tutgan favqulodda muhim ahamiyati xususida ham qimmatli ma'lumotlar borligi, asarning tarixiy ahamiyatini yanada oshirganligini alohida qayd etish mumkin.

Jumaquli Xumuliy Amir Haydar (1800-1826) hukmronligi davrida Urgut qasabasining qoziligiga tayinlangan, qozilik faoliyati bilan bir paytda talabalarga ham saboq bergan. Xumuliy nafaqat tarix ilmida ijod qilgan, balki uning katta hajmdagi fors va turkiy tillardagi nazmiy asarlari, masnaviy, qasida, marsiyalari saqlanib qolgan. Bular: "Devoni Xumuliy", "Risolai Xumuliy", "Manzumoti tarixiya" singari asarlardir.

"Tarixi Xumuliy"ning bizgacha to'rtta qo'lyozmasi saqlangan bo'lib, ulardan ikkitasi nisbatan to'liqroq ekanligi aniqlangan. Birinchisi, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida inv.№37/VI raqami ostida saqlanuvchi nusxasidir. Ushbu nusxa asarning saqlanib qolgan qo'lyozmalari ichida eng to'lig'i bo'lib, boshqa nusxalarga nisbatan ba'zi afzalliklarga ega. Unda matn ko'chirilgach, xattot tomonidan yana bir bor ko'zdan kechirilib, tushib qolgan ba'zi so'z va iboralar sahifalar hoshiyalariga bitilgan. Ushbu qo'lyozmada "Tarixi Xumuliy"dan (133^b-345^a) tashqari muallifning

²² Мухаммад Яъқуб ибн Амир Дониёл. Тарихи амирони манғит. //Қўлёзма, ЎзР ФА ШИ ҚФ – № 2726. –²⁶ вар. //Muhammad Ya'qub. Gulshan ul-muluk. O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. Тошкент, Fan va texnologiya, 2014. -B. 55-58b.

²³ Вохидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик: шаклланиши, намоёндалари, асарлари. - Тошкент, 2007. - Б.102.

“Masnaviy-i shoh va gado” (1^b-9^b), “Manzumot-i tarixiya” (10^a-60^b), “Devon-i Xumuliy” (60^b-125^b), “Risolayi Xumuliy” (126^a-128^a) asarlari ham o‘rin olgan.

Ikkinchisi – “Tarix-i Xumuliy”ning Samarqand qo‘lyozmasi. Mazkur nusxa Samarqand viloyati Urgut tumanida yashovchi Abdullohxon Abduvadudov xonadonida (avvalgi tadqiqotlarda u kishining familiyasi Muxiddinov tarzida berilgan²⁴) saqlanadi. Asarning ushbu qo‘lyozmasi Xumuliyning ustози Muhammad Lutfullohxojaning ukasi So‘fixojaning nabirasi Mutahharxoja Urgutiy tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘shimchalar Toshkent nusxasida 182^b – varag‘ining matn orasida joylashgan bo‘lib, Samarqand nusxasida 118-122- sahifalaridan o‘rin olgan.

Uchinchisi - Dushanbe qo‘lyozmasi “Tarixi Xumuliy”ning muqaddima qismini o‘z ichiga oladi va shu sababli katalogda asarga shartli ravishda berilgan “Tarjima-i hol-i qozi Jumaquli Xumuliy” nomi mantiqan to‘g‘ri keladi²⁵. Katalogda u muallifning dastxati bo‘lishi mumkinligi haqida mulohaza bildirilgan. Biroq, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida mavjud bo‘lgan Xumuliy dastxati bilan solishtirilganda, bu tasdiqlanmadi. Qo‘lyozmalar fondida 9688-inv. raqami bilan saqlanuvchi qo‘lyozma jilddagi 10 varaqdan iborat 7-asar “Tavorix-i fath-i Shahrisabz” Xumuliy qo‘li bilan ko‘chirilgan. Unda Abdulhafiz Buxoriy, Rojiy va Pir G‘ulomning 1272-yilda (m.1855/56y) Amir Nasrulloh tomonidan Shahrisabzni zabt etishga bag‘ishlab bitgan tarixlari o‘rin olgan²⁶.

To‘rtinchisi - O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi bo‘lib (inv.№79/XIII), tasavvufga oid boshqa ko‘plab asarlar bilan bir jildda jamlangan “*Tarixi Xumuliy*”ning Musoxon Dahbediy va uning xalifalari haqidagi fasllarini o‘z ichiga oladi²⁷. *Sharq qo‘lyozmalari katalogi* tavsifida asarga “*Manoqib-i shayx Musoxon Dahbediy*”, deb shartli nom qo‘yilgan, biroq “*Tarixi Xumuliy*”ning bir qismi ekanligi aytilmagan. Ushbu hol adabiyotlarda ham “*Manoqib-i shayx Musoxon Dahbediy*”ning alohida asar sifatida qayd etilishi sabablaridan biri bo‘ldi. Ko‘chirilgan yili noma‘lum. Biroq katalogdagi ayni shu qo‘l bilan yozilgan boshqa bir asar 1333/1914-15 yilda ko‘chirilganini nazarda tutib, mazkur nusxa ham taxminan shu yillarda kitobat etilgan, deb taxmin qilish mumkin. Xattot - Mirzo Isomiddin Nasafiy mazkur nusxani mulla Ubaydulla ibn domulla Niyoz Boqiy 1278-yilda kitobat qilgan qo‘lyozmadan ko‘chirganini xabar qiladi²⁸.

Qo‘lyozma nusxalardan tashqari, Jumaquli Xumuliyning “Tarixi Xumuliy” asari ilmiy-tanqidiy matni 2013-yilda YuNESKO tashkiloti homiyligida H.Yo‘ldoshxo‘jayev mas‘ul muharrirligida G‘ulom Karimiy va Iroda Qayumova tomonidan o‘zbek va ingliz tilida yozilgan so‘zboshi bilan asosiy matn fors tilida

²⁴ Абдурахмонов А. Хумулий Ургутий ва унинг ижодий мероси. – Самарқанд, 1972. – 169 б.// Яна қаранг: Mullā Jum‘a-qulī Khumūlī. Tārikhī Khumūlī. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhodjayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. –243 p.

²⁵ Каталог восточных рукописей. Том I. Ташкент, 1960. №177.

²⁶ Собрание восточных рукописей. История, № 883. Mullā Jum‘a-qulī Khumūlī. Tārikhī Khumūlī. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhodjayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. – p.XI.

²⁷ Собрание восточных рукописей. Том.III. Ташкент, 1955. №2706.

²⁸ O‘sha manba, №2706.

nashr etilgan²⁹. Bizningcha, ushbu tanqidiy matn asarni izlanuvchilar o'rganishi uchun qulay hisoblanadi, sababi bunda asarning barcha nusxalaridagi ma'lumotlar solishtirilib, matnlardagi farqlar qayd etilgan holda nashr etilgan.

“Tarixi Xumuliy”da muallif va uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, shuningdek, tariqat vakili sifatidagi faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud. Shu nuqtai nazardan, asarni avtobiografik va agiografik yo'nalishda yozilgan deyish mumkin. Muallif asarga aniq bir nom bermagan hamda uni asarning turli sahifalarida risola, tazkira, muxtasar deya so'z yuritgan.

“Tarixi Xumuliy” asarining ilk tadqiqotchilaridan biri bo'lgan Sadriddin Ayniyning “Tarix-i amiron-i mang'itiya-i Buxoro” asarida uning nomini “Tarixi Mullo Xumuliy” sifatida qayd etgan³⁰. Shuningdek, Ayniy Abu Tohirxoja Samarqandiyning nashrga tayyorlangan, lekin o'sha paytda chop etilmay qolib ketgan “Samariya” asarining o'zbekcha tarjimasiga 1926-yilda yozgan so'zboshisida Mulla Jumaqulining asarini “Xumuliy tarixi” sifatida zikr qilgan³¹.

Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari katalogida asar “Tarjima-i hol-i qozi Jumaquli Xumuliy” deb nomlangan. Adabiyotshunos olim A.Abdurahmonovning “Xumuliy Urgutiy va uning ijodiy merosi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida “Tarixi Xumuliy” asari bir-biridan mustaqil uch asar: “Tarixi Xumuliy”, “Tarixi mang'itiya” hamda “Shayx Musoxon Dahbediyning tarjimayi holi” sifatida qayd qilingan³².

I.Abdullayev va H.Hikmatullayevning “Samarqandlik olimlar” kitobida³³, H.H.Yo'ldoshxo'jayevning “Musoxon Dahbediyning naqshbandiya-mujaddidiya tariqati rivojida tutgan o'rni (XVIII asr)” risolasida Xumuliy asaridan keng foydalanilgan³⁴.

“Tarix-i Xumuliy” muallifning o'zi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va o'sha davrdagi diniy hayot haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Xumuliy keltirgan ma'lumotlarning boshqa muhim tomoni shundaki, XVIII asrda mintaqada musulmonlari orasida shariatga to'g'ri kelmaydigan ko'pgina rasm-rusumlar avj olgan edi. Ma'lumotlarga qaraganda, ayni shu holat boshqa omillar singari o'z vaqtida Shohmurod Ma'sumning diniy islohotni amalga oshirishiga va uning “shariatni ortiqcha urf-odatlardan tozalash” kabi harakatlariga turtki bo'ladi. Bu jarayonlarda, albatta, Mujaddidiya shayxlari faol ishtirok etganlar³⁵.

²⁹ Mullā Jum'a-qulī Khumūlī. Tārīkhī Khumūlī. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhodjayev. Samarkand-Tashkent: ICAS, 2013. – 243p.

³⁰ Айний Садриддин. Тарих-и амирон-и манғития-и Бухоро. – Тошкент, 1923. – Б. 15.

³¹ Самарқандий Абу Тоҳирхожа. Самария. Тошкент: “Камалак”, 1992. – Б.6.

³² Абдурахмонов А. Хумулий Ургутий ва унинг ижодий мероси. – Б.88-101.

³³ Абдуллаев И.А., Хикматуллаев Х. Самарқандлик олимлар. – Тошкент, 1969. – Б.92-93.

³⁴ Юлдашходжаев Х.Х. Мусохон Даҳбедийнинг нақшбандийа-мужаддидийа тариқати ривожиди тутган ўрни (XVIII аср). – Тошкент: ЎзФА ШИ, 2008. – 140 с.; Йўлдошхўжаев Х. “Тарих-и Хумулий” асари Ўзбекистон тарихи бўйича ноёб манба // Истиклол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши. Маърузалар тезислари тўплами. – Тошкент, 2001. – Б. 164-166.

³⁵ Babajanov B. On the History of the Naqshbandiya-Mujaddidiya in Central Mavara'annahr in the Late 18th and Early 19th Centuries // Muslim Culture in Russia and Central Asia from 18th – to the early 20th Centuries. – Berlin, 1996, – P. 395-398; Анке фон Кюгельген. Расцвет Накшбандийа-Мужаддидийа в Средней Трансоксании с XVIII до начала XIX вв.: опыт детективного расследования // Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сборник статей памяти Фритца Майера (1912-1998) / Составитель и отв.редактор Хисматуллин А.А. – СПб., 2001. – С.300.

Anke fon Kyugelgenning fikricha, Xumuliy Musoxon Dahbediyning xalifalariga murid bo'lgani sababli "Tarixi Xumuliy"da tasavvuf bobida ular haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan cheklanadi, deb baholaydi. Shuning uchun So'fi Olloyor yoki uning xalifasi Jonmuhammad kabi o'sha davrdagi Mujaddidiya shayxlarni eslab o'tganligi qayd etiladi³⁶.

Xulosa qilib aytganda, Xumuliy asarida keltirilgan va boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar bizga o'sha davrdagi diniy, siyosiy va ijtimoiy vaziyat haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, Musoxon Dahbediy haqida ma'lumot beruvchi ushbu nodir manba Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati tarixini o'rganish va ilmiy tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Tarixi Xumuliy" asarida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining yoritilishi**" deb nomlanadi. Ushbu bobda Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasining inqirozi, Eron shohi Nodirshoh bosqini va uning salbiy oqibatlari, shuningdek, mang'it amirlarining hokimiyat tepasiga kelishi hamda ularning ma'muriy boshqaruvdagi faoliyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, Buxoro tarixiga oid atamalar etimologiyasi ham yoritib berilgan.

Tadqiqot ishida XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Ashtarxoniylar sulolasi vakillari Buxoro xonligi markaziy hokimiyatini kuchaytirish uchun yetarlicha shart-sharoit yaratib bera olmaganligi, sulolaning so'nggi vakili Abulfayzxon davrida mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashgani, xalqning moddiy ahvoli og'irlashganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tarixchi Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyolning ta'kidlashicha, ko'chmanchi qozoqlar yetti yil (1723-1729) mobaynida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi serhosil ekinzorlarni talaydilar³⁷. Mazkur davrdagi Buxoro xonligining ichki siyosiy parokandaligidan foydalanib, 1736-1737 yillarda Eron hukmdori Nodirshohning o'g'li Rizoqulixon va Tahmasp jaloir vakil ud-davla boshchiligidagi 12 minglik harbiy qo'shin ham Amudaryodan o'tib, Qarshi va G'uzor shaharlarini qamal qildi³⁸. Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiyga yordamga Xazar hukmdori Boboxon keldi³⁹.

1153 yil rajab oyining (1740 yil sentyabr oyi) boshlarida Nodirshoh avval Buxoro, keyin Xorazmni egallash maqsadida Amudaryoning narigi tomoniga Chorjo'y orqali yo'l oldi⁴⁰. Xon farmoniga ko'ra, Hakimbiy amaldorlar va jo'ybor shayxlarining vakillari hamrohligida qimmatbaho sovg'alar bilan Nodirshohning Chorjo'ydagi qarorgohiga tashrif buyurdi⁴¹. Abulfayzxon Nodirshohga yuborgan maktubida o'zining shohga xayrixohligini bildirgan edi⁴². Faxriy qabul o'tgach,

³⁶ Анке фон Кюгельген. Расцвет Накшбандийа-Мужаддидийа в Средней Трансоксании с XVIII до начала XIX вв.: опыт детективного расследования // Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сборник статей памяти Фритца Майера (1912-1998) / Составитель и отв.редактор Хисматуллин А.А. – СПб., 2001. – С.292.

³⁷ Муҳаммад Яъқуб ибн Амир Дониёл. Тарихи амирони манғит. //Қўлёзма, ЎЗР ФА ШИ ҚФ – № 2726. –2⁵ вар.

³⁸Муҳаммад Яъқуб ибн Амир Дониёл. Тарихи амирони манғит... – Вар 3⁶.

³⁹ Xazar – Sharqiy Kavkazoldi (taxminan Dog'iston hududlari).

⁴⁰ Ўша асар... -В.31-34.

⁴¹ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI- первой половине XIX века. – Ташкент, 1966. Т.1 -177 с.

⁴² Муҳаммад Вафои Карминагий....- Вар. 39а-40б.

yuzma-yuz suhbatda Hakimbiy shohga xon hokimiyatining beqaror ekanligi va o'zining shoh xizmatiga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Ushbu bobda Muhammad Hakimbiyning Nodirshoh tomonidan o'ziga katta huquqlar beruvchi yorliqni olib, Buxoroga uning muxtor vakili sifatida qaytganligi bayon etilgan. Natijada Buxoroda qo'shhokimiyatchilik yuzaga keldi. Muhammad Hakimbiy endi "amiri-kabir" deb atala boshlandi⁴³.

Nodirshoh Buxoro yaqinidagi Chahor-Bakr mavzesini Hakim otaliq maslahatiga ko'ra ishg'ol qilgach, Abulfayzxon uning qarshisiga qimmatbaho sovg'alar bilan chiqib, shohga itoatkorlik bildiradi⁴⁴. Bu uchrashuvda qator viloyatlarning qozi va amirlari, jumladan, Hisordan Muhammadaminbiy, Shahrisabzdan Olmabiy, Qubodiyondan Yoqubbiy, Miyonqoldan G'aybullabiy, Abdusattorbiy va Nurotadan Tog'aymurodbiylar qatnashdilar⁴⁵. Abulfayzxon Eron shohiga itoatkorlik bildirishga majbur bo'lganligi sabablari tadqiqotning ushbu bobida aks ettirilgan. "Tarixi Xumuliy" asarida tarixiy voqealar mang'it urug'ining hokimiyatga kelishi davri bilan boshlanib, Nodirshoh bosqiniga qadar qisqacha sharh berilgan holda davom ettirilgan.

Xumuliy asarni mang'itlarga bag'ishlagan bo'lsa-da, Abulfayzxonning qatl etilishini qoralaydi. Nodirshoh va Abulfayzxonning o'ldirilishi Buxoroda murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi. Vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimbiy "qizilboshlar"ga mukofot va sovg'alar berib, o'z yurtlariga qaytishga ko'ndiradi.

Ushbu g'alabadan so'ng Muhammad Rahimbiy to'laqonli davlat boshlig'iga aylandi. 1756-yilda Muhammad Rahimbiy xonning qizi Yulduzbegimga uylandi va "xon" unvonini oldi⁴⁶.

Muhammad Rahimbiyning taxtga o'tirishi o'sha davr manbashunoslari tomonidan muhim siyosiy voqea sifatida baholangan. Abdulkarim Buxoriy, Muhammad Ya'qub, Xumuliy, Miriy kabi tarixchilar o'z asarlarida amirni "taxti baxt", "taxti saltanati Buxoro", "taxti Turon"ga o'tirganliklarini batafsil bayon qilgan⁴⁷. Muhammad Rahimbiy shundan so'ng uch yil xonlik mansabi bilan yashadi⁴⁸.

Ushbu bobda Muhammad Rahimbiy o'z hukmronligi davrida mamlakatning obodonchilik ishlariga katta e'tibor qaratilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, turli siyosiy urushlar tufayli vayron bo'lgan Samarqanddagi Darg'om kanali qaytadan bunyod etildi. Buxoro shahrining mudofaa devori mustahkamlanib, 1752-1753 yillarda balandligi ikki metrli yangi devor qurilgan. Shahar markazida ko'plab madrasa va masjidlar qurildi, bog'-rog'lar barpo etildi⁴⁹.

Ushbu bobda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishidagi siyosiy jarayonlarni sayyohlar, elchilar, savdogarlarning kundalik

⁴³ O'sha asar... – Var. 396-40a.

⁴⁴ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве XVI- первой половине XIX века. Ташкент: 1966. Т.1 -178с.

⁴⁵ Муҳаммад Вафои Карминагий.... -Var. 36 б.

⁴⁶ Мирза Шамс Бухорий. Баъзе хаводисоти Бухоро, Қўқанд ва Тошканд. 1861. – 36.

⁴⁷ Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимбий манғитлар сулоласи асосчиси. // "Бухоро мавжлари", 2003, № 3, Б.37.

⁴⁸ Mullā Jum'a-qulī Khumūlī. Tārīkhī Khumūlī... -B. 70.

⁴⁹ Mullā Jum'a-qulī Khumūlī. Tārīkhī Khumūlī... – B.706.

xotiralari, mahalliy tarixchilarning qo‘lyozma asarlari hamda arxiv hujjatlaridagi tarixiy ma‘lumotlarni “Tarixi Xumuliy” asarida keltirilgan ma‘lumotlar bilan solishtirish asosida yoritishga harakat qilindi. Buxoroda mang‘itlar sulolasiga asos solinishi bilan uning o‘ziga xos davlat boshqaruvi tizimining yaratilganligi hamda amirlikdagi markaziy va mahalliy boshqaruvda amaldorlarning ishtiroki, faoliyatining takomillashganligi va huquqiy asoslari yoritilgan⁵⁰.

Amir Doniyolbiy Buxoro amirligining qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borishiga ham alohida e‘tibor bergan. 1774-1776-yillari Moskva, 1779-1780-yillari Sankt-Peterburg shaharlariga Ernazarbiy Maqsud o‘g‘li boshchiligidagi Buxoro elchilari yuborilgan. Ernazarbiy 1780-yilda va Muhammad Sharif 1783-1784-yillarda elchi qilib Turkiyaga yuborilgan⁵¹.

1785-1800-yillarda Buxoroda Amir Shohmurod hukmronlik qilgan. Tadqiqot ishida “Tarixi Xumuliy” asarida Amir Shohmurodni yigirmadan ortiq sifatlar bilan ta’riflaganligini hamda Shohmurodning hokimiyatdan kechib, din yo‘lini tanlashiga sabablari ko‘rsatib o‘tilgan. V.V.Grigoryevning qayd etishicha, “Shohmurod Buxoro hukmdorlari orasida birinchi bo‘lib o‘z hokimiyatiga diniy maqom, ya’ni “amir ul-mo‘minin” unvonini olgan hukmdor. Bu unvon faqat xalifalarga nisbatan ishlatilgan”⁵².

Shohmurod “Ayn al-hikmat” asarini yozgan va shariatni huquqning yagona manbasi deb e‘lon qilgan hamda o‘zidan oldingi hukmdorlarning barcha qaror va farmonlarini bekor qilgan. Asosiy e‘tiborni masjid, madrasa, mozar va vaqf mulklari qurilishiga ajratdi. “Tuhfat as-zoirin” asarida Shohmurodning soliq, sud, boshqaruv va harbiy sohalarda islohotlar qilganligi qayd etilgan⁵³. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi (traktat) tuzib chiqildi. Viloyat va tuman qozilari (sudlari) aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borar edi. Oliy sud palatasi tashkil etildi. Unda amir Shohmurod boshchiligida 40ta huquqshunos qozilar fuqarolik va jinoiy ishlarni ko‘rib chiqqan. Mazkur tizimda muftiy (rivoyat va fatvo bilan ta’minlovchi), rais (muhtasib), sadr (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug‘ullanuvchi) kabi lavozimlar ham bo‘lgan⁵⁴. Shu sababli mahalliy tarixchilar amir Shohmurodni “Amiri ma’sum” - “Begunoh amir” va “Umari soniy”- “Ikkinchi Umar”, “g‘oziy” kabi unvonlari bilan tilga olishadi.

Amir Shohmurod 1785-yilda pul islohotini o‘tkazib, sof kumush va oltindan tangalar zarb qildirgan⁵⁵. Ushbu tangalarda ilk marta “amir” unvoni tilga olingan. 0,7 misqolga (3,36 gr) teng bo‘lgan sof kumush tangalar yirik savdo muomalasida ishlatilgan. Avvalgi tangalardan o‘zining qiymati, sifati va tashqi ko‘rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar ham zarb ettirgan. Zarafshon daryosidan

